



The economic and diplomatic significance of the Arabic language in Uzbekistan: demand for qualified translators

Sulaymon ESHNAZAROV¹

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received November 2024

Received in revised form

10 December 2024

Accepted 25 December 2024

Available online

25 January 2025

Keywords:

Arabic language,
translator,
consular activities,
economy,
diplomatic relations,
international trade,
investment,
infrastructure,
finance,
bank,
tourism,
electronic visa system,
transport.

ABSTRACT

This article analyzes the growing demand for qualified Arabic language translators due to the development of economic and diplomatic cooperation between Uzbekistan and Arab countries. The role of accurate and reliable translation in diplomatic relations, trade and economic interactions, investment projects, construction and infrastructure, the Islamic banking system, and tourism is examined scientifically. Additionally, the strategic importance of translators in documentation and negotiation processes and their contribution to enhancing cooperation efficiency are explored.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss1/S-pp371-379>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

O'zbekistonda arab tilining iqtisodiy va diplomatik ahamiyati: malakali tarjimonlarga bo'lgan talab

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

arab tili,
tarjimon,
konsullik faoliyati,
iqtisodiyot,
diplomatik aloqalar,
xalqaro savdo,
investitsiya,
infratuzilma,
moliya,
bank,
turizm,
elektron viza tizimi,
transport.

Mazkur maqolada O'zbekiston va arab davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy va diplomatik hamkorlikning rivojlanishi natijasida malakali arab tili tarjimonlariga ehtiyoj ortib borayotgani tahlil qilinadi. Diplomatik aloqalar, savdo-iqtisodiy munosabatlar, investitsiya loyihalari, qurilish va infratuzilma, islom banki tizimi hamda turizm sohalarida aniq va ishonchli tarjimaning o'rne ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, tarjimonlarning hujjatlar va muzokaralar jarayonidagi strategik ahamiyati, ularning hamkorlik samaradorligini oshirishdagi roli tahlil qilinadi.

¹ Teacher, Samarkand State Institute of Foreign Languages. E-mail: eshnazarovsulaymon@gmail.com

Экономическое и дипломатическое значение арабского языка в Узбекистане: спрос на квалифицированных переводчиков

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

арабский язык,
переводчик,
консульская деятельность,
экономика,
дипломатические связи,
международная торговля,
инвестиции,
инфраструктура,
финансы,
банк,
туризм,
система электронной
визы,
транспорт.

В данной статье анализируется растущая потребность в квалифицированных переводчиках арабского языка в связи с развитием экономического и дипломатического сотрудничества между Узбекистаном и арабскими государствами. Освещается роль точного и надёжного перевода в дипломатических связях, торгово-экономических отношениях, инвестиционных проектах, строительстве и инфраструктуре, исламской банковской системе, а также в сфере туризма. Кроме того, рассматривается стратегическая значимость переводчиков в документационном и переговорном процессах, их вклад в повышение эффективности сотрудничества.

Arab tili – dunyo tillari ichida o'zining tarixiy, madaniy va ilmiy ahamiyati bilan ajralib turuvchi noyob tildir. Bu til Somiy tillar guruhining janubiy tarmog'iga mansub bo'lib, o'z tarixi davomida nafaqat Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika, balki butun dunyo uchun ahamiyatli bo'lgan ilmiy va madaniy merosning asosiy qismiga aylangan. Hozirda arab tili 22 ta davlatning rasmiy tili bo'lib, undan 400 milliondan ortiq inson kundalik hayotida foydalanadi. Bundan tashqari, arab tili xalqaro maydonda yuqori o'ringa ega bo'lib, Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy tillaridan biri sifatida e'tirof etilgan.

Arab tilining o'ziga xosligi uning lug'at boyligi, ifoda imkoniyatlari va murakkab grammatik tuzilmalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu til nafaqat diniy matnlarning asosiy vositasi, balki zamonaviy fan, texnologiya va xalqaro diplomatiyada ham muhim aloqa vositasi hisoblanadi. Bugungi kunda arab tilining global ahamiyati va madaniy ta'siri tobora ortib, xalqaro munosabatlarda muhim o'rin egallamoqda. Dunyo madaniyatlari o'rtasida bilim va tajriba almashinuvida asosiy ko'priq vazifasini bajarishi uning nufuzi va ta'sir doirasini yanada kengaytiradi.

Ayniqsa, O'zbekiston uchun arab tili alohida ahamiyat kasb etadi, chunki mamlakatning Arab davlatlari bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalari izchil rivojlanib, o'zaro hamkorlik yangi bosqichga chiqmoqda. Shu sababli, arab tilini mukammal biluvchi mutaxassislar, ayniqsa, professional tarjimonlarga bo'lgan ehtiyoj keskin oshgan. Arab tilini mukammal biladigan mutaxassislarning yetishmovchiligi tarjima sohasidan tashqari boshqa muhim yo'nalishlarda ham sezilarli qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda.

O'zbekistonning Arab davlatlari bilan o'zaro hamkorligini inobatga olganda, ushbu jarayonni samarali tashkil etish va mustahkamlash uchun yuqori malakali tarjimonlar hamda lingvist mutaxassislar tayyorlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur jihatdan qaralganda, bu tilni professional darajada biladigan kadrlarga bo'lgan ehtiyoj quyidagi asosiy yo'nalishlarda yaqqol namoyon bo'ladi:

1. Diplomatiك vakolatxonalar va konsullik aloqalari

O'zbekiston va Arab mamlakatlari o'rtasidagi diplomatik hamkorlik tobora mustahkamlanib bormoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda dunyoning 54 davlati o'z elchixonasiga ega bo'lib, ulardan 8 tasi Arab mamlakatlariga tegishlidir. Xususan, Saudiya Arabistoni, Quvayt, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA), Misr, Jazoir, Ummon Sultonligi, Iordaniya va Falastin davlatlarining Toshkent shahrida rasmiy vakolatxonalari mavjud. Shu bilan birga, O'zbekiston ham Arab dunyosidagi muhim davlatlarda o'z elchixona va konsullik tarmoqlarini rivojlantirmoqda. Hozirda mamlakatimizning Misr, Quvayt, BAA, Saudiya Arabistoni va Ummon Sultonligida elchixonalari faoliyat yuritib, Dubay (BAA) va Jidda (Saudiya Arabistoni) shaharlarida konsullik idoralari ham mavjud [20].

Mazkur vakolatxonalar ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida aloqalarni mustahkamlash bilan birga, ushbu idoralar fuqarolarga konsullik xizmatlari ko'rsatadi. Xususan, ishbilarmonlik aloqalarini kengaytirish, investitsiyalarni jalb qilish, o'qish va ziyorat vizalarini rasmiylashtirish jarayonlarida mazkur elchixonalar va konsulliklarning roli beqiyosdir.

Shu nuqtai nazardan, diplomatik idoralarda professional darajadagi arab tiliga ega tarjimon va mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj sezilarli darajada ortib bormoqda. Rasmiy hujjatlarni aniq va ishonchli tarjima qilish, delegatsiyalar o'rtasida samarali muloqotni ta'minlash va davlatlararo muzokaralarda aniq ifoda vositasi sifatida tarjimonlarning ishtiroki hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, xalqaro huquq va diplomatik protokol asoslarini yaxshi biladigan tarjimonlarga talab yuqori bo'lib, ularning faoliyati O'zbekistonning xalqaro maydondagi mavqeini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

2. Tijorat va savdo aloqalari

So'nggi yillarda O'zbekiston va Arab mamlakatlari o'rtasidagi tijorat va savdo aloqalari sezilarli darajada faollashdi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonning Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA), Quvayt, Misr va boshqa arab davlatlari bilan savdo hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Xususan, BAA O'zbekistonning Yaqin Sharqdagi eng yirik savdo hamkorlaridan biri bo'lib, 2024-yilda ikki davlat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 650 million AQSh dollarini tashkil etdi. 2021-yildan boshlab, bu ko'rsatkich har yili o'rtacha 20% oshgan.

Misr bilan 2022-yilda tashqi savdo aylanmasi 30,6 million AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu hajm ikki baravarga oshdi. 2023-yil davomida ikki davlat o'rtasidagi savdo hajmi yanada o'sishda davom etdi. Bunda, ip-kalava, neft, kimyo va farmatsevtika mahsulotlari, elektrotexnika jihozlari va agrosanoat mahsulotlari alohida o'rin tutmoqda.

Quvayt bilan savdo-iqtisodiy aloqalar 5 barobar o'sgan. 2022-yilda O'zbekistonning Quvaytga eksport qiladigan asosiy mahsulotlari qishloq xo'jaligi mahsulotlari, to'qimachilik mahsulotlari va tibbiyot mahsulotlari bo'lib, O'zbekiston Quvaytdan asosan kimyo sanoati mahsulotlari va xizmatlarni import qilgan. Fors ko'rfazi mamlakatlariga eksport qilishning eng maqbul yo'nalishi "O'zbekiston-Turkmaniston-Eron-Quvayt" transport yo'lagi sifatida belgilangan [17].

Saudiya Arabistoni bilan 2025-yilning birinchi choragida hukumatlararo qo'shma komissiya yig'ilishi va biznes-forum o'tkazish rejalashtirilgan. Bu hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun ikki davlat o'rtasidagi savdo hajmini oshirish va yangi investitsiyalarni jalb qilish maqsadida yangi sarmoyaviy tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Saudiya Arabistonidan kelgan sarmoya va qo'shma loyihalar bu o'sishga katta ta'sir ko'rsatmoqda [3].


O'zbekiston va Arab mamlakatlari o'rtasidagi savdo aloqalarini rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalar va imtiyozli shartnomalarning ahamiyati katta. O'zbekistonning BAA va Quvayt bilan bo'lgan savdo-iqtisodiy aloqalari bu yo'nalishda erkin iqtisodiy zonalarda soliq va bojxona imtiyozlaridan foydalangan holda kengaymoqda.

3. Biznes forumlari va investitsiyalarni jalb qilish

O'zbekistonda arab tili professional tarjimonlari yetishmovchiligi, ayniqsa xalqaro biznes forumlari va investitsiyalarning rivojlanishi bilan bog'liq ravishda yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Bu forumlar mamlakatimiz bilan arab davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi, ammo til muammolari, ayniqsa arab tilidagi professional tarjimonlar yetishmasligi, samarali muloqotda to'sqinlik qilmoqda.

O'zbekiston-Quvayt biznes-forumi (2017-yil, 8-fevral) ikkala mamlakat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va moliyaviy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan muhim tadbir bo'ldi. O'zbekiston Tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov forumda mavjud imkoniyatlarni ta'kidladi va til muammolariga e'tibor qaratdi. O'zbekiston-Saudiya Arabistoni biznes-forumi (2018-yil) esa 20 dan ortiq kompaniya ishtirokida ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar va investitsiyalarni muhokama qildi. Forumda O'zbekiston va Saudiya Arabistoni o'rtasidagi tovar aylanmasi 42 million dollarni tashkil etdi. 2024-yilda O'zbekiston – Quvayt biznes-forumi o'tkazilib, IT, turizm, kimyo, tibbiyot va oziq-ovqat sohalaridagi hamkorliklar ko'rib chiqildi. B2B uchrashuvlar va kelishuvlarga erishildi. O'zbekiston – Misr biznes-forumi (2024-yil dekabr) Toshkentda o'tkazilib, ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishga qaratildi. Forumda hamkorlikni mustahkamlash uchun muhim kelishuvlar imzolandi. O'zbekiston – BAA biznes-forumi (2024-yil oktyabr) esa 63 ta istiqbolli loyiha va 21 ta xususiylashtirish obyektlarini taqdim etdi, bu ham mamlakatimiz uchun katta investitsiya imkoniyatlari yaratdi. O'zbekiston-Ummon biznes-forumi ham mehmonxona biznesi va sog'liqni saqlash sohalarida yangi hamkorliklarni boshlashga zamin yaratdi [15].

Statistika agentligining 2024-yilgi hisobotiga ko'ra, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekistonda jami 229,3 trln so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 136,6% ni tashkil etdi. Investitsiya jalb qilishda eng yirik 8ta investor davlatlar qatoridan Xitoy, Rossiya va Turkiya o'rin oldi. Shuningdek, Saudiya Arabistoni, BAA, Germaniya, Buyuk Britaniya va Kipr ham yirik investor davlatlar sifatida ro'yxatga kiritilgan. Biz uchun ahamiyatli tomoni shundaki, ushbu eng katta investor davlatlar orasida arab mamlakatlaridan Saudiya Arabistoni va BAAning mavjudligi va ularning O'zbekiston istiqboli uchun qiziqib sarmoya kiritayotganidir. Ushbu investitsiyalar nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, balki ikki tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlash imkoniyatlarini yaratadi. Quyidagi rasmlar orqali siz 2023-2024-yillar mobaynida O'zbekistonga sarmoya kiritgan eng top davlatlar ro'yxati bilan tanishishingiz mumkin [14].



4. Qurilish va infratuzilma loyihalari

O'zbekistonda arab tili professional tarjimonlariga bo'lgan talab qurilish va infratuzilma sohasida ham sezilarli darajada ortib bormoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston va arab davlatlari o'rtasidagi hamkorlik natijasida yirik qurilish va infratuzilma loyihalari amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihalar natijasida muloqotning samaradorligini ta'minlash, hujjatlar va shartnomalarni to'g'ri tarjima qilish hamda texnik masalalarni aniq tushuntirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Birlashgan Arab Amirliklari kompaniyalari O'zbekistonning infratuzilma sektorida faol ishtirok etmoqda. Masalan, Masdar kompaniyasi tomonidan Navoiy viloyatida 500 megavatt quvvatga ega shamol elektr stansiyasi qurilib, foydalanishga topshirildi. Shuningdek, kompaniya O'zbekistonda umumiy quvvati 1,5 gigavatt bo'lgan yashil energetika loyihalarini amalga oshirdi. Shu bilan birga, BAA ning Mubadala va TAQA kompaniyalari Talimarjon issiqlik elektr stansiyasini modernizatsiya qilishga qariyb 1 milliard AQSh dollari miqdorida sarmoya yo'naltirdi. Qatar ham O'zbekistonda infratuzilma rivojiga o'z hissasini qo'shmoqda. Xususan, Qatar Investment Authority va boshqa qator kompaniyalar O'zbekistonning transport va energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish loyihalariga qiziqish bildirgan. Bu esa energetika, transport va qurilish sohalarida malakali tarjimonlarga ehtiyojni oshirmoqda. Saudiya Arabistoni bilan hamkorlik doirasida "ACWA Power" kompaniyasi O'zbekistonda 1,2 gigavatt quvvatga ega bo'lgan quyosh elektr stansiyalarini qurish loyihalarini amalga oshirib, mamlakat energetika tarmog'iga yirik sarmoya kiritmoqda. Bundan tashqari, Saudiya Taraqqiyot jamg'armasi Toshkent shahridagi infratuzilma obyektlarini moliyalashtirishga 100 million AQSh dollaridan ortiq sarmoya ajratgan, bu esa kelajakda qurilish sohasidagi hamkorlikni yanada kengaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, BAAning "GCC Services" kompaniyasi ijtimoiy obyektlar – o'quv muassasalari, sog'liqni saqlash inshootlari va turistik-kurort zonalarini barpo etish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishga qiziqish bildirgan.

Shuningdek, O'zbekistonda infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan 30 milliard dollarlik 63 ta loyiha va 21 ta obyekt taqdim etildi, bunda BAAning "Al Ghurair Investment", "RKH Investment Holdings", "AlNowais Investments", "MBS Global" va "Mubadala investment company" kabi yirik kompaniyalari ishtirok etdi. Ushbu jarayonlarda o'zaro muzokaralar, investitsiya shartnomalari va texnik hujjatlarning to'g'ri tarjima qilinishi muhim ahamiyatga ega. Qurilish va infratuzilma sohasidagi bunday hamkorlik O'zbekiston va arab davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash bilan bir qatorda, arab tilini mukammal biladigan tarjimonlarga bo'lgan talabni keskin oshirmoqda. Malakali tarjimonlarning yetishmovchiligi kelajakda ushbu loyihalarning samaradorligiga ta'sir qilishi mumkin. Shu bois O'zbekistonda arab tilini o'rgatish tizimini takomillashtirish, sohani chuqur tushunadigan mutaxassislar tayyorlash dolzarb masalaga aylanmoqda.

5. Islom banki tizimi

Islom banki tizimi – shariat tamoyillariga asoslangan moliyaviy mexanizm bo'lib, an'anaviy bank xizmatlaridan farqli ravishda foiz (ribo) olish va to'lashni taqiqlaydi. Ushbu tizim moliyaviy operatsiyalarni adolat, risklarni teng taqsimlash hamda real iqtisodiy faoliyatga asoslangan holda yuritish tamoyillariga tayanadi. Islomiy bank xizmatlari rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda barqarorlikni ta'minlash, investitsiyalarni jalb qilish va muqobil moliyaviy yechimlarni taklif etish vositasi sifatida e'tirof etiladi. O'zbekiston so'nggi yillarda islomiy moliyalashtirish tamoyillarini joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlarni jadallashtirib, Islom taraqqiyot banki (ITB) va boshqa arab davlatlarining moliyaviy institutlari bilan hamkorlikni kengaytirmoqda.

O'zbekistonda islomiy bank xizmatlariga bo'lgan ehtiyoj bir qator muhim omillar bilan bog'liq. Mamlakat aholisi asosan musulmonlardan iborat bo'lib, shariatga muvofiq moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talab ortib bormoqda. An'anaviy bank tizimining foiz asosida ishlashi, diniy e'tiqodga amal qiluvchi mijozlar uchun muqobil moliyaviy yechimlarga ehtiyojni oshirmoqda. Global miqyosda islomiy moliya bozori jadal rivojlanib, 2023-yilda uning hajmi 3,3 trillion AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 3,7 trillion AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda [13]. Malayziya, Indoneziya, BAA, Saudiya Arabistoni va Turkiya ushbu sohada yetakchi davlatlar hisoblanadi. O'zbekiston ham islomiy moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirib, milliy moliyaviy tizimga islomiy bank xizmatlarini integratsiya qilish yo'lida muhim qadamlar tashlamoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Islom taraqqiyot banki (ITB) va Islomiy Xususiy Sektorni Rivojlantirish Koorporatsiyasi (ICD) bilan hamkorlikni rivojlantirib, islomiy moliyaviy mahsulotlar, kredit liniyalari va investitsiyalarni jalb etish bo'yicha kelishuvlar amalga oshirmoqda. Xususan, tijorat banklarida islomiy moliyalashtirish xizmatlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. "Kapitalbank" va "Aloqabank" kabi yirik moliyaviy institutlar murabaha, mudaraba va ijara asosidagi moliyaviy xizmatlarni taklif qilmoqda. Ushbu jarayonlar islomiy moliyalashtirish mexanizmlarini mamlakat iqtisodiyotiga integratsiya qilishga xizmat qilmoqda.


Islom banki tizimini joriy etishda arab tilini mukammal biladigan professional tarjimonlar strategik ahamiyat kasb etadi. Islomiy bankning huquqiy-me'yoriy hujjatlari, moliyaviy shartnomalari va bank operatsiyalari ko'pincha arab tilida ishlab chiqiladi. O'zbekistonning Islom taraqqiyot banki, Saudiya Taraqqiyot Jamg'armasi va boshqa arab moliyaviy institutlari bilan hamkorligi kengayib borayotgan sharoitda, hujjatlarning aniq va to'g'ri tarjima qilinishi investitsiya kelishuvlarining huquqiy jihatdan to'g'ri

yuritilishini ta'minlaydi. Tarjimadagi xatoliklar yoki noto'g'ri talqin qilishlar yirik moliyaviy yo'qotishlar va huquqiy kelishmovchiliklarga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli, O'zbekistonda arab tilida yuqori saviyada so'zlashuvchi, moliyaviy-huquqiy tarjimada yetuk mutaxassislarni tayyorlash islomiy bank tizimini rivojlantirish va xalqaro moliyaviy hamkorlikni mustahkamlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

6. Turizm va ziyorat xizmatlari

O'zbekiston – Markaziy Osiyoning yuragida joylashgan, qadimiy sivilizatsiyalar beshigi bo'lgan mamlakat. Uning boy tarixiy merosi, betakror me'moriy yodgorliklari va islomiy madaniyat markazlari asrlar davomida butun dunyo sayyohlarini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlar Sharq sivilizatsiyasining eng yorqin durdonalaridan sanalib, Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan muhim savdo va ilm markazlari bo'lib xizmat qilgan. Ayniqsa, Registon maydoni, Amir Temur maqbarasi, Shohi Zinda majmuasi, Ichan qal'a, Bahouddin Naqshband ziyoratgohi, Imom al-Buxoriy maqbarasi kabi tarixiy va diniy obidalar dunyo miqyosida mashhurlikka ega.

So'nggi yillarda O'zbekiston turizm sohasida katta yutuqlarga erishmoqda. Hukumat tomonidan sayyohlik infratuzilmasini rivojlantirish, viza rejimini yengillashtirish, xizmatlar sifatini oshirish kabi qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida mamlakatga tashrif buyuruvchi sayyohlar soni yildan yilga oshib borayapti. Yurtimizga nafaqat Yevropa va Osiyo mamlakatlaridan, balki arab davlatlaridan ham sayyohlar oqimi ko'paymoqda. Hozirda O'zbekistonga tashrif buyuruvchi sayyohlar orasida Rossiya, Xitoy va Yevropadan tashrif buyuruvchi mehmonlar ustunlik qilayotgan bo'lsa-da, arab davlatlaridan kelayotgan sayyohlar soni ham izchil ravishda ortib bormoqda [14]. Quyida siz so'nggi yillarda mamlakatga kelayotgan sayyohlar soni va 2024-yilda undagi arab mamlakatlarining ulushi haqidagi statistik ma'lumotlar bilan tanishishingiz mumkin.



O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biri xorijiy sayyohlar uchun viza va chegara nazorati jarayonlarini soddalashtirishga qaratilgan islohotlardir. Xususan, mamlakat tomonidan joriy etilgan elektron viza tizimi xalqaro sayohatchilar uchun qulay imkoniyatlar yaratmoqda. Bugungi kunga kelib, ushbu tizim 137 ta davlat fuqarolari uchun amal qilayotgan bo'lib, ularning 11 tasi arab mamlakatlariga to'g'ri keladi [19]. Elektron viza tizimi xorijlik

sayyohlarning ortiqcha hujjat rasmiyatchiliklarisiz, onlayn tarzda O'zbekistonga tashrif buyurish imkoniyatini kengaytiradi. Mazkur mexanizm, ayniqsa, geografik masofa va viza olish jarayonlari bilan bog'liq murakkabliklarni kamaytirish orqali, arab davlatlaridan keluvchi sayyohlar oqimini oshirishda muhim rol o'ynamoqda.

Shu bilan birga, turizm sohasida transport infratuzilmasining, ayniqsa, xalqaro aviaqatnovlarning rivoji alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston va arab davlatlari o'rtasidagi havo transporti aloqalari yildan yilga kengayib, turizm sektorining barqaror o'sishiga xizmat qilmoqda. Hozirgi vaqtda Uzbekistan Airways, Flydubai, Air Arabia, Saudi Arabian Airlines hamda Air Samarkand kabi aviakompaniyalar tomonidan Dubay, Abu-Dabi, Jidda, Riyod, Sharja kabi yirik markazlardan Toshkent, Samarqand, Buxoro va Urganch shaharlariga muntazam to'g'ridan-to'g'ri reyslar yo'lga qo'yilgan. Ushbu havo yo'nalishlari nafaqat arab davlatlaridan kelayotgan sayyohlar uchun qulaylik yaratadi, balki O'zbekistonning turizm va ziyorat maskanlariga bo'lgan qiziqishni ham oshiradi.

Turizm infratuzilmasining yana bir muhim tarkibiy qismi mehmonxona va sayyohlik xizmatlari tizimining rivojlanishidir. O'zbekistonda xalqaro talablarga javob beruvchi mehmonxona infratuzilmasi izchil kengayib, mehmonlarga yuqori darajadagi xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilmoqda. Xususan, Dubay, Abu-Dabi va Doha kabi shaharlardan tashrif buyuruvchilar O'zbekiston hududidagi Hyatt, Hilton, Radisson, Wyndham, Marriot kabi xalqaro mehmonxona brendlarida yuqori sifatli xizmatlardan foydalanish imkoniga ega.

Xulosa tarzida shuni aytish mumkinki: O'zbekiston va arab davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy, diplomatik va madaniy hamkorlikning jadallashuvi malakali arab tili tarjimonlariga bo'lgan talabni keskin oshirdi. Hozirgi kunda diplomatik muloqotlar, savdo-iqtisodiy aloqalar, investitsiya loyihalari, qurilish va infratuzilma rivoji, islomiy moliyaviy xizmatlar hamda turizm sohalari samarali til vositachiligiga bevosita bog'liq. Ushbu yo'nalishlarda hujjatlar va ma'lumotlarning aniq va ishonchli tarjima qilinishi muvaffaqiyatli hamkorlikning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro diplomatik aloqalarning mustahkamlanishi uchun rasmiy hujjatlar va muzokaralarning to'g'ri talqin qilinishi talab etiladi. Tijorat va investitsiya sohalari esa bitimlar, shartnomalar hamda texnik hujjatlarning mukammal tarjima qilinishi tomonlar o'rtasidagi huquqiy aniqlikni ta'minlaydi. Qurilish va infratuzilma loyihalarida texnik terminologiyaning o'ziga xosligi yuqori malakali tarjimonlarning ishtirokini zarur qiladi. Islom banki tizimining rivojlanishi esa shar'iy moliyaviy shartnomalar va hujjatlarning maxsus bilim talab qiluvchi tarjimasini talab etadi.

Turizm va ziyorat xizmatlarining kengayishi bilan birga, arab tilida muloqot qila oladigan mutaxassislar sonini oshirish dolzarb masalaga aylandi. O'zbekistonda mehmonxona va sayyohlik xizmatlarining xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirilishi arab sayyohlari oqimining ortishiga xizmat qilmoqda. Elektron viza tizimining joriy etilishi va aviaqatnovlarning kengayishi natijasida O'zbekistonga kelayotgan arab sayyohlarining soni yildan yilga ortib borayotgan bo'lsa, ularning ehtiyojlarini qondirish uchun malakali tarjimon va gidlar yetarli darajada tayyorlanishi zarur. Shunday ekan, O'zbekistonda arab tili bo'yicha professional tarjimonlar tayyorlash tizimini rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etadi. Sohalar bo'yicha ixtisoslashgan tarjimonlarning yetishib chiqishi nafaqat iqtisodiy va diplomatik hamkorlik samaradorligini oshiradi, balki mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'ral Haydarov, Investitsiya loyihalarini islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirish yo'llari, YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT: Vol. 2 No. 8 (2024): «Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali. DOI: https://doi.org/10.55439/GED/vol1_iss11-12/a197
2. Tajiddinov J.Sh. O'ZBEKISTONGA TASHQI DAVLATLARDAN INVESTITSIALARNI JALB QILISH, QATAR VA ITALIYA MAMLAKATLARI//So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi respublika ilmiy-uslubiy jurnali 6-jild 6-son. 2023, 429-434 betlar.
3. Tangirberdiyev A, Allaberdiyev E, Suvonov A. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA SAUDIYA ARABISTONI QIROLLIGI O'ZARO MUNOSABATLARI//Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi 2-jild 7-son 2024, 133-135 betlar.
4. Sultonboyeva Bo'stonoy Narimon qizi. (2024). O'ZBEKISTON TURIZM SALOHİYATI. TADQIQOTLAR.UZ, 37(8), 118–121. Retrieved from <https://tadqiqotlar.uz/new/article/view/3082>
5. Alamov Shavkat Rahmatovich. (2024). ZIYORAT TURIZMI ATAMALARI VA ULARNING TARJIMA MASALALARI. "ARAB TILI GLOBALLASHUV DAVRIDA: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA O'QITISH METODIKASI" MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN, 1(12), 277–283. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14543451>
6. Alamov, S. (2024). Ziyorat va sayohat atamalarining etimologiyasi va qiyosiy tahlili. Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 200-202. <https://doi.org/10.2024/fwga3v14>
7. Ahmedov, S. (2021). Effective Technique of Teaching and Learning Arabic Language in the Classroom in Uzbekistan. Science and Education, 2(5), 716-724.
8. Sh. I. Akhmedov (2021). CLASSIFICATION AND TYPES OF NEOLOGISMS IN UZBEK LANGUAGE. Scientific progress, 2 (1), 1186-1189.
9. Chorshanbiyevich, Qurbonov Bobur. "ON THE TRANSLATION OF PERSIAN COMPLEMENTS." Multidisciplinary Journal of Science and Technology 4.6 (2024): 266-269.
10. Qurbonov, Bobur. ""MAJOLIS UN-NAFOIS" VA "LATOYIFNOMA" TAZKIRALARIDAGI MATNLARNING QIYOSIY TAHLILI." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2.1 (2022): 616-625.
11. <https://uzbekistan.travel/uz/pribytie-turistov-v-uzbekistan/>
12. <https://kun.uz/news/2023/07/04/ozbekistonda-islom-moliyasi-qonunchilikdagi-ozgarishlar-yutuq-kamchiliklar-va-takliflar>
13. <https://daryo.uz/2024/09/11/ozbekistonda-islom-moliyasi-joriy-etilsa-100-mingta-ish-orni-yaratilishi-mumkin-vatandosh-intellektual-klubida-navbatdagi-muhokama>
14. <https://stat.uz/uz/>
15. <https://gov.uz/oz/miit/news/view/28207>
16. <https://www.uzdaily.uz/uz/ozbekiston-va-misr-savdo-iqtisodiy-hamkorlikni-mustahkamlaydi/>
17. <https://kun.uz/16336262?q=%2Fuz%2F16336262#!>
18. https://www.iais.uz/uz/articles/ozbekiston-va-saudiya-arabistoni-alloqalarini-mustahkamlamoqda-diplomatik-seminarda-ikki-tomonlama-munosabatlar-va-mintaqaviy-xavfsizlik-korib-chiqildi?utm_source=chatgpt.com
19. <https://e-visa.gov.uz/application>
20. <https://www.goldenpages.uz/uz/search/?region=&s=elchixonalar>